



INTERNET ORQALI KIRIB KELGAN YANGI SO`ZLARNING TAKOMILLASHUVI

Boymurodov Hayitmurod Baxtiyor O`g`li

Samarqand iqtisodiyot va servis institute 1-kurs talabasi

hayitmurodboymurodov@51gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda tilimizga kirib kelgan kundalik suhbatimizda keng qo`llaniladigan so`zlarni va ularning tahlilini ko`rib chiqamiz.

Kalit so`zlar: neologizm, so`z, til, yangi so`zlar, leksika, zamonaviy kommunikatsiya, axborot, IT, Instagram, imo, karantin, you tube, google, telegram.

KIRISH

Til insonning tafakkur shakli va millatning borlig`idir. O`zbekiston davlati va o`zbek millati jahon hamjamiyatida o`z munosib o`rniga ega ekan, bu uning milliy tili shakllanganligidan va davlatchilik asoslari to`g`ri belgilanganidan dalolatdir. Ba`zilar tilni faqat fikrning ifoda vositasi bilib, unga ikkilamchi munosabatda bo`ladilar. Bu fikrning noto`g`riligi shundaki, inson tili orqali tafakkur qiladi. O`zlikni anglashda tilning roli muhimdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu haqda shunday degan edilar: "... ajdodlardan o'tib kelayotgan ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz", -deya ta'kidlagan edilar. Tilning jamiyat bilan hamnafas yuradigan, undagi o'zgarishlarni o'zida aks ettirishni talab etadigan muhim bo'limi leksika hisoblanadi. Leksika tildagi o'zgarishlarni o'zidan boshqa doiralarga kengroq aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Neologizmlar - yunoncha, neos- "yangi", logos-"so'z" so'zlarining jamlanmasi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlar avvaliga noodatiy so'zdek bo'ladi, lekin ko'p qo'llanilishi hisobiga "yangilik" xususiyatini yo'qotadi va faol so'zlar qatoriga o'tadi.



Neologizmlarni bir necha sohaviy guruhlarga bo`lib ham o`rganish mumkin. Masalan; kundalik turmushda foydalaniladigan neologism, biznes, texnika, iqtisodiy, aniq fanlar, tibbiyot, raqamli texnologiyalarneologizmlari kabi.

Iqtisodiy neologizmlar deb aynan shu sohada qo`llanilayotgan va yangi kirib kelgan yangi so`zlardir; Shuningdek, barcha soha doirasida foydalanilayotgan neologizmlar ham turli xil jarayonlar vositasida vujudga keladi.

O'zbek tili leksikasi muntazam ravishda ichki va tashqi manbalar hisobiga boyib bormoqda. XIX-XX asrlarda jamiyat hayotida bo'lgan o'zgarishlar so'zlarning o'zlashish va iste'moldan chiqish jarayonini tezlashtirdi. Bu davrda nafaqat ruscha, balki inglizcha, xitoycha, fransuzcha, ispancha so'zlar rus tili orqali kirib keldi.

O'zbek tilida chet so'zlar miqdori 40 foizdan dan sal ortiqroq, shundan 26 foizdan sal ortiqrog'i rus tiliga tegishlidir. Umuman, o'zbek tilidagi o'zlashgan so'zlar miqdori uncha katta hissani tashkil etmaydi. Chunki rus va yevropa tillarining deyarlisida o'zlashgan so'zlar 60 foizdan kam emas. Buning ustiga, nomi o'zlashgan deb atalgan so'zlarning hammasi ham chetdan o'zlashavermagan.

Bir tildan boshqa tilga so'z o'tishi ijobiy hol. Shunisi ham borki, rivojlanishi faqat o'z ichki imkoniyatlari doirasi bilan cheklangan biron-bir bo'lmagani kabi, rivojlanishi faqat tashqi imkoniyat - boshqa tillardan lisoniy birliklar olishga asoslangan til ham bo'lmaydi. So'z o'zlashtirish deganda boshqa tilning barcha so'zlarining olinishi emas, balki ulardan nehtiyojga muvofiqlarining olinishi tushuniladi. Shuning uchun ham so'z o'zlashishi tillar rivojlanishining tashqi omillari sirasiga kiradi.

CHETDAN KIRIB KELGAN SO`ZLAR VA ULARNING TAHLILI

Google LLC [Alphabet](#) kompaniyasigategishli transmilliy karparatsiyasidir. [Amazon](#), [Apple](#), [Meta](#) va [Microsoft](#) kompaniyalari bilan birgalikda „Katta beshlik“ axborot texnologiyalari kompaniyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim hozirda internetda mashhurligi bo'yicha birinchi o'rinda bormoqda (u 70 % qidiruv so'rovlarini amalga oshiradi).

ID yoki Identifikator — subyektni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborot

Imidj - uyg'unlashgan tashqi ko'rinish

IT - «Information Technology» so'zining qisqartmasi bo'lib, axborot texnologiyasi degan ma'noni anglatadi.

IT so'zini ishlatganda, aslo «IT texnologiyalari» deb gapirilmaydi. Boisi, gapni to'liq yozib, o'zbekchaga o'girsak «Axborot texnologiyalari texnologiyalari» ko'rinishida namoyon bo'ladi, bu esa biroz g'alati eshitiladi.



Instagram - Kevin Systrom va Mike Krieger tomonidan yaratilgan, 2010-yilning oktabr oyida ishga tushirilgan hamda rasm va videolarni ulashish uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq hisoblanadi.

IMO - the International Maritime Organization Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi bo'lib, yuk tashish xavfsizligi va xavfsizligi, dengiz va atmosferaning kemalar tomonidan ifloslanishining oldini olish uchun javobgardir. IMO faoliyati BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydi

Karantin (ital. quarantena — qirq kun), karantinlash — 1) tibbiyotda — o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishini cheklashga karatilgan epidemiyaga qarshi ma'muriy va sanitariya tadbirlari majmui

Jalyuzi - xonalarni quyosh nuri, yog'in-sochin va boshqalardan muhofaza qilish uchun derazalarning ichki tomoniga o'rnatiladigan moslama

Kardigan - yengil kiyim ustidan kiyiladigan kurtka

Komment – izoh

Konsultatsiya - rasmiy maslahatlashuv yoki muhokama qilish harakati yoki jarayoni

Telegram — tezkor xabar almashish vositasi. Oddiy foydalanuvchilar matn xabarlashuvdan tashqari bir-birlariga har birining hajmi 2 GB gacha bo'lgan tasvir, audio, video va har xil fayllar yuborishlari hamda ovozli va video qo'ng'iroqlarni amalga oshirishlari, kanal va guruhlarda ovozli hamda video chatlarda qatnashishlari mumkin.

YouTube, LLC – online online video va ijtimoiy media platformasi. Bosh ofisi Kaliforniyaning San Peterburg shahrida joylashgan. YouTubedan foydalanish qulay va ko'rish osonligi tufayli juda ham mashhur va kirib ko'ruvchilari soni ko'pligi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turadigan saytdir

IQTISODIYOT SOHASIGA YANGI KIRIB KELGAN SO'ZLAR VA ULARNING MA'NOSI

Rentabel-foydali, daromadli

Keshbek-shartnoma asosida tashqi manbalardan foydalanish

Paynet-to'lov

Kriptovalyuta-raqamli valyuta

Klik-to'lovlarni amalga oshirish

Inflatsiya-pul qadrsizlanishi

Peyme-to'lov turi

Monitoring-kuzatish nazorat qilish



Balans- miqdoriy muvozanatlashish

Reyting-daraja

Skidka-arzon narxlarda berish

Investitsiya-sarmoya

Kridet-banklar tomonidan muayyan muddatga beriladigan sarmoya

Rejim-muayyan qoidalarga asoslangan shakl

Ushbu soʻzlar hozirda hayotimizda keng qoʻllanilib kelinmoqda. Keyinchalik ham shunga oʻxshash soʻzlar tilimizga kirib kelish ehtimoli katta. Chunki zamon rivojlanishi, texnologiyalarning koʻpayishi, axborotlarning ortishi sababli yangi soʻzlar paydo boladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir yangi soʻz oʻz maʼno va mazmuniga ega. Shuningdek har qanday sohaga yangi soʻzlar yani neologizmlar kirib kelmoqda. Vaqt oʻtishi, axborotlar resurslarning koʻpayishi yangi soʻzlarni keltirib chiqarmoqda. Shunday ekan biz bunga ijobiy qarashimiz, neologizmlarni oʻz vaqtida oʻrganib olishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitzpatrick, Alex. „[Google Used to Be the Company That Did 'Nothing But Search'](#)“. [Time](#).
2. Bekmurodovna, Y. D., & Bakhodirovich, E. D. (2023). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE INTERNATIONAL PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 312-314.
3. [YouTube language versions](#), imgur.com
4. Bekmurodovna, Y. D., & Bakhodirovich, E. D. (2023). PROBLEMS IN THE ERA OF GLOBALIZATION AND INNOVATIVE SOLUTIONS TO THEM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 329-331.
5. Bekmurodovna, Y. D., & Bakhodirovich, E. D. (2023). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE INTERNATIONAL PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 312-314.
6. Bekmurodovna, Y. D. (2021). Organization Of Terms As A Factor for The Improvement of Economic Sciences. *Eurasian Research Bulletin*, 2, 82-86.
7. Yuldasheva, D., & Karshieva, M. (2022, January). PERTINENT TO THE ROLE OF SCIENTIST WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF THE SUBJECT UZBEK LINGUISTICS. In *Archive of Conferences* (pp. 61-62).
8. Yuldasheva, D. (2022). FORMATION OF ECONOMIC TERMINOLOGY- THE CURRENT STAGE OF DEVELOPMENT OF THE TERMINOLOGY OF



- THE UZBEK LANGUAGE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
9. Yuldasheva, D. B. (2023). NAVOIYNING SHE'RIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATIGA DOIR. Academic research in educational sciences, 4(Conference Proceedings 1), 174-179.
 10. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
 11. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
 12. Yuldasheva, D. (2022). THE EMERGENCE OF NEW ECONOMIC WORDS AND PHRASES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE MODERN UZBEK LANGUAGE. 湖南大学学报 (自然科学版), 49(10).
 13. Dilnoza, Y. (2018). About Conducting Research on the Subject of Ornithological Terms in Uzbek Language. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(7), 53-61.
 14. Yuldasheva, D. (2019). Communicative approach in teaching a foreign language. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 193-199.
 15. Yuldasheva, D. (2022). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS'COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH (ON THE EXAMPLE OF TOURISM DIRECTIONS). Science and innovation, 1(B7), 1498-1501.
 16. Yuldasheva, D. (2021). PHILOSOPHY OF LIFE-AS A DRIVING FORCE. Theoretical & Applied Science, (6), 633-635.
 17. Yuldasheva, D. B. (2021). Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. Science and World. International scientific journal, (2), 90.
 18. Yuldasheva, D. A. (2021). Some essential trends in teaching second language vocabulary. Academic research in educational sciences, 2(6), 782-786.
 19. Yuldasheva, D. (2020, December). Anthropolcentric approach to children's speech study. In Конференции.